

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

FRANCE

SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

zenodo OpenAIRE



OPEN ACCESS





ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



**FRANCE international scientific-online conference:
"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN
EDUCATION SYSTEM"**

Part 36
5th MAY
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

PARIS 2025



Saidnazarova Saida Faxritdinovna	142
<i>CHIZMA GEMOTRIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI</i>	
Akramov Izzatulla Ikromovich	146
Toshova Sh.A	
<i>SO'ZLARDA</i>	<i>KONNOTATIV</i>
<i>MA'NOLARNING AKS ETISHI</i>	<i>HAMDA DENOTATIV</i>



SO'ZLARDA KONNOTATIV HAMDA DENOTATIV MA'NOLARNING AKS
ETISHI

Akramov Izzatulla Ikromovich

Bukhara State University Researcher of the English linguistics department

Toshova Sh.A

(3rd year student of BSU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda so'z ma'nosining ikki asosiy turi - denotativ (asosiy, atash) va konnotativ (qo'shimcha, emotsional, uslubiy) ma'nolar o'rganiladi. Muallif til taraqqiyoti va jamiyat rivoji natijasida so'zlarning lug'aviy boyishi, ayniqsa konnotativ ma'nolarning shakllanishi va ularning lingvistik ahamiyati haqida fikr yuritadi. Maqolada konnotativ ma'no tushunchasining ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinishi, uning shaxsiy va umumiy turlari, shuningdek, hissiy, madaniy va adabiy konnotatsiyalarning namoyon bo'lish shakllari yoritilgan. Denotativ ma'no esa so'zning asosiy, aniq va doimiy ma'nosi sifatida tavsiflanadi. Muallif konnotativ ma'noning til birliklarining semantik va pragmatik imkoniyatlarini kengaytirishi, jamiyat va shaxs tajribasi asosida shakllanishi, yozuvchilar va o'quvchilar uchun muhim kommunikativ vosita ekanini ta'kidlaydi. Maqolada konnotatsiya va denotatsiyaning farqlari, ularning til va nutqdagi o'rni, hamda zamonaviy tilshunoslikdagi dolzarb tadqiqot yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: denotativ ma'no, konnotativ ma'no, semantika, tilshunoslik, konnotatsiya, denotatsiya, hissiy konnotatsiya, madaniy konnotatsiya, adabiy konnotatsiya, so'z ma'nosi, pragmatika.

REFLECTION OF CONNOTATIVE AND DENOTATIVE MEANINGS IN
WORDS

Annotation: This article examines the two fundamental types of word meaning in linguistics: denotative (primary, referential) and connotative (additional, emotional, stylistic) meanings. The author discusses how the development of language and society leads to an enrichment of vocabulary, particularly through the emergence of connotative meanings and their linguistic significance. The article highlights the varying interpretations of connotative meaning in scholarly literature, its personal and collective types, and the manifestation of emotional, cultural, and literary connotations. Denotative meaning is described as the basic, precise, and universally accepted meaning of a word. The author emphasizes that connotative meaning expands the semantic and pragmatic possibilities of linguistic units, is shaped by social and individual experience, and serves as an important communicative tool for both writers and readers. The article analyzes the differences between connotation and denotation, their roles in language

Keywords: denotative meaning, connotative meaning, semantics, linguistics. connotation, denotation, emotional connotation, cultural connotation, literary connotation, word meaning, pragmatics

Til nafaqat muloqot vositasi, balki u ma'lum bir til so'zlashiladigan jamiyatda asrlar davomida to'plangan ma'lumotlarning oynasidir. Jamiyat qanchalik rivojlansa, shu



jamiyatdagi til ham yashaydi, rivojlanadi, kamol topadi va zamon hamda hududning talablaridan kelib chiqib boyib, o'zgarib boradi.

Fan, texnologiya, madaniyat va iqtisodiyotning rivojlanishi tilning lug'at boyligini yanada oshiradi. Bu jarayon o'zlashma so'zlar va til birliklarining asosiy ma'nolariga qo'shimcha ma'no (konnotativ ma'no) berish orqali sodir bo'ladi. Tilshunoslar tilda ikki xil ma'no: denotativ (atash) va konnotativ (qo'shimcha) ma'no mavjudligini qayd etadilar. So'zning qo'shimcha ma'nosi turli nomlar bilan ataladi. Chunonchi stilistik bo'yoq, qo'shimcha ma'no (созначение), ekspressiv ma'no ottenkasi. So'z semantikasi faqat denotativ (atash) ma'nosi bilan cheklanib qolmay, so'zda konnotativ ma'no ham mavjud. Keyingi davrdagi ilmiy ishlarda til birliklaridagi denotativ ma'nolar umumtilshunoslikda atroflicha o'rganilganligi qayd etilgan.

So'zning denotativ (atash) ma'nosiga bag'ishlangan turli darslik, o'quv qo'llanmalari, monografik tadqiqotlar yaratilgan. Ammo konnotativ ma'no til yaruslarining barchasida mavjudligiga qaramasdan, ular to'g'risida hali yetarlicha ilmiy xulosalar chiqarilmagan. Bu tilshunoslikda semasiologik yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borishni kuchaytirishini taqozo etadi. Konnotativ ma'noning turlari, ularning so'zni til va nutq elementi sifatida olingan holatlarda so'z semantikasiga munosabati, shuningdek, fonetik vositalarda ifodalangan konnotativ ma'nolar, ya'ni nutq tovushlarining talaffuzi bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar, tilda mavjud supersegment fonetik vositalarda ifodalangan qo'shimcha ma'no —bo'yog'i hamda morfologik birliklarda ifodalangan konnotativ ma'nolar tadqiqi kabi qator masalalar tilshunoslikda haligacha uzil-kesil o'z yechimini topganicha yo'q.

Bu haqda tilshunoslikda turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar so'zning konnotativ ma'nosi so'z semantikasi komponentiga kirmaydi, degan fikrlarni bildirsalar, boshqa tilshunoslar konnotativ ma'no so'z semantik strukturasiining bevosita tarkibiy qismlardan biri deb qaraydilar. Ayrim tilshunoslar esa, konnotasiya so'z pragmatikasining bir qismi deb ta'riflaydilar.²⁴ Ilmiy adabiyotlarda esa konnotasiya denotasiyaga ilova qilingan, til birligining konnotativ ma'no ifodasi, uning atrofini o'rab olgan qo'shimcha semalardir degan ta'riflar mavjud.

Konnotasiya til birliklari semantikasiga kiruvchi semantik mavjudlik bo'lib, u nutq subyektiining borliqqa emotiv baholash va uslubiy belgilangan munosabatini ifoda etadi. Tilshunoslikda konnotasiyani tadqiq etishda xuddi shu tarzda pragmatik baho hisobga olinmoqda.

Pragmatika hozirgi davr tilshunosligida nisbatan torroq ma'noda tushuniladi. Fikrimizcha, tilda doimiy (turg'un) holatga ega bo'lgan pragmatik axborot lingvistik qiziqish tug'dirdi. Ushbu fikrdan kelib chiqib, biz pragmatika deb, so'zlovchi tomonidan til birligida mustahkamlangan quyidagi uch narsaning baholashini tushunamiz: axborot predmeti bo'lgan borliqni, axborot mazmunini va adresatini. Konnotatsiya so'zining birinchi marta tilshunoslikda termin sifatida qo'llanilishini kuzatish murakkab.

Biroq shuni aytish mumkinki, XIX asrning o'rtalarida sinonimik lug'atlar nazariyasi va ularni yaratish amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan ingliz leksikografik adabiyotida

²⁴ Saidov, A. S. (2022). The Role of Connotation in Lexical Semantics: A Case Study of English and Uzbek Words. Asian Journal of Linguistic Research, 5(1), 29–35.



—konnotatsiya termini ikki xil ma'nosi shakllangan. Birinchidan, konnotatsiya-so'zning izohida bevosita kiritiladigan leksik ma'nolarning qo'shimcha(modal,emotsional – ekspressiv) elementlari deb qaralgan. Ikkinchidan, konnotatsiya – narsa va borliqning boshqa obyektini qonuniy baholash so'zining bevosita leksik ma'nosiga kiritilmagan. XIX asrga kelib, konnotatsiya so'zining yuqorida ko'rib chiqilgan ma'nolaridan tashqari yana bir necha ma'nolari (izohlari) borligi aniqlandi. Ushbu izohlar talqinida konnotatsiya terminiga turli ta'riflar berilganligi aniqlandi.

Chunonchi, konnotatsiya denotasiyaga qaramaqarshi ma'no (logik qarash); konnotatsiya so'zning sintaktik valentligi (psixolingvistik qarash); konnotatsiya –majoziy unsurlarga (elementlarga) asoslangan ko'chma ma'no; konnotatsiya leksik ma'noning majburiy bo'lmagan, qo'shimcha ikkinchi darajali (fakultativ) unsuri (element) ekanligi qayd qilgan.²⁵Konnotativ ma'no so'zning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha tarzda yuklangan hissiy, madaniy yoki shaxsiy tushunchalardan iborat bo'ladi.

G'oyalarni ifodalovchi aksariyat so'zlar konnotativ ma'noga ega bo'lishi mumkin, chunki g'oyalarning o'zlari ham konnotatsiyaga ega. Ular bizda aqliy yoki hissiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Konnotatsiya faqat so'zlar orqali emas, balki fonetik, fonologik, morfologik, sintaktik darajalarda, hatto matn darajasida ham ifodalanishi mumkin. Konnotatsiyaning ikki turi mavjud: shaxsiy va umumiy. Shaxsiy konnotatsiyalar alohida bir odamning tajribasi natijasida shakllanadi.

Bizning g'oya va obyektlarga bo'lgan munosabatimiz oldingi tajribalarimizning aniq xususiyatlari bilan belgilanadi. Lug'atimizdagi aksariyat so'zlar bilan bog'liq konnotatsiyalar bizning hayotimizning murakkab va shaxsiy yozuvlari hisoblanadi. Ba'zi so'zlar bilan bog'liq munosabatimiz uzoq tajribalarimiz natijasida shakllangan bo'lsa, ba'zilariniki esa bizda ilk yoki juda esda qolarli bir voqea natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shaxsiy va umumiy konnotatsiyalar orasidagi bog'liqlikni tushunish uchun bir lahzalik fikrlash kifoya.

Jamiyatni tashkil etuvchi alohida shaxslarning onglarining yig'indisi sifatida umumiy konnotatsiyalar paydo bo'ladi, ya'ni ko'pchilikning ma'lum bir so'zga bo'lgan munosabati deyarli bir xil bo'lsa, bu umumiy konnotatsiya sifatida qaraladi. Tilimizdagi so'zlarning ma'lum bir ma'no soyasiga ega bo'lishi ko'pincha tilga katta ta'sir ko'rsatgan yozuvchilarning ushbu so'zlarni qanday ishlatganiga bog'liq bo'lgan. Ammo umumiy konnotatsiya har doim ham adabiy rivojlanish natijasida yuzaga kelavermaydi. U xalq tajribasi natijasida ham shakllanishi mumkin.²⁶

Barcha umumiy konnotatsiyalar avval shaxsiy konnotatsiyalardan – ya'ni alohida shaxslarning shaxsiy va yakka tajribalaridan kelib chiqadi. Lekin keyinchalik, umumiy konnotatsiyalar shakllanganidan so'ng, jarayon teskari tomonga ishlay boshlaydi: ma'lum bir so'z ifodalovchi g'oya bilan shaxsiy tajribasi bo'lmagan odam ham jamiyatning ushbu so'zga bo'lgan munosabatini kuzatib, o'z shaxsiy munosabatini shakllantirishi mumkin. Har bir yozuvchi umumiy va shaxsiy konnotatsiyalarni farqlashga majbur va faqat umumiy konnotatsiyalarga tayanishi kerak. Yozuvchi o'z fikrlarini to'liq yetkazishi uchun

²⁵ Shamirzayeva, Z. K.. "Connotative and Denotative Meanings of Words." Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, 2022.

²⁶ Navruzova, N. K.. "Characteristics of Expressing Connotation in the English and Uzbek Languages." Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2023.



o'quvchi uning so'zlariga aynan u mo'ljallagan ma'noni yuklashi kerak. Bu esa faqat so'zlar orasidagi umumiy qabul qilingan farqlar to'liq tan olingan taqdirdagina mumkin bo'ladi.²⁷

"Konnotatsiya" atamasi XIX asrda J. St. Mill tomonidan "Of names. Theory of meanings" asarida ishlatilgan. U konnotatsiya deganda so'zlar tomonidan beriladigan ishoralarni tushungan va shaxs nomlarini alohida belgilar sifatida ajratib, konnotatsiyani esa ushbu nom doirasidagi mavjud hukmlarning sanog'i sifatida ko'rsatgan.²⁸

Amerikalik tilshunos Edward Sapir o'z asarida "Sapir" ta'kidlaganidek, til millatning madaniy tafakkurini aks ettirib, jamiyat ongida qaror topgan tasavvurlarni o'zida mujassamlashtiradi. Konnotativ ma'no quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: Hissiy konnotatsiya: So'zlar ijobiy yoki salbiy hissiyot uyg'otishi mumkin. Masalan, "uy" – iliqlik va xavfsizlikni, "qorong'ulik" esa qo'rquv yoki sirli muhitni anglatadi.

Madaniy konnotatsiya: So'zlar turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, oq rang G'arb madaniyatida poklik, Osiyo madaniyatida esa motam timsoli bo'lib keladi.

Adabiy konnotatsiya: Ba'zi so'zlar adabiyot orqali o'ziga xos ma'nolarni oladi. Masalan, "Romeo" so'zi Shakespeare asari ta'sirida romantik qahramon tushunchasiga aylangan.²⁹

Denotativ ma'no – so'zning asosiy, aniq va umumiy qabul qilingan ta'rifi bo'lib, u shaxsiy idrok va madaniy tafovutlardan qat'i nazar doimiy saqlanib qoladi. Lyons fikriga ko'ra, denotatsiya leksik birliklarning asosiy vazifasi bo'lib, u real dunyo obyektlariga aniq ishora qiladi. Masalan: Daraxt – tanasi, shoxlari va barglari bo'lgan ko'p yillik o'simlik.

Kitob – yozma yoki bosma materiallar to'plami.³⁰

REFERENCE:

1. Akramov, I. (2021). Linguistic Culture Expressing Happiness and Contentment in The English And Uzbek. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 1(1).
2. Akramov, I. I. (2022). The special characteristics of the aphorisms. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 1).
3. Akramov, I. (2021). Linguistic Culture Expressing Happiness and Contentment in The English And Uzbek. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 1(1).
4. Akramov, I. (2021). WHAT IS THE IMPORTANCE OF USING APHORISM IN OUR SPEECH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

²⁷ Navruzova, N. K.. "Characteristics of Expressing Connotation in the English and Uzbek Languages." Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2023.

²⁸ Shamirzayeva, Z. K.. "Connotative and Denotative Meanings of Words." Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, 2022.

²⁹ Haydarov, A. A., & Ruziyeva, N.. "Denotative and Connotative Meanings in Word Semantics." Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 2023.

³⁰ http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2712